# O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA MA'RIFIY SHE'RLAR VA ULARNI O'RGANISHNING AXLOQIY-TA'LIMIY AHAMIYATI

X. A. Xaitov
BuxDPI dotsenti(PhD)

Zoyirova Dildora Yusuf qizi
BuxDPI magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada o`zbek bolalar she'riyatidagi alohida turkumni tashkil qiluvchi ma'rifiy she'rlar tahlili va tadqiqi hamda ularni boshlang`ich sinflarda o`rganishning axloqiy-ta'limiy ahamiyati haqida fikr yuritiladi..

**Kalit so'zlar:** ma'riy, ma'naviy, didaktik, istiqlol, badiiy, obrazlilik, pedagogik, nazariy, tafakkur.

XXI asr o`quvchisining tafakkuri juda o`tkirdir. Dunyoqarashi keng. Mustaqillik yillarida bolalar adabiyotining badiiy jihatdan yuksak namunalariga keng e'tibor qaratish, yangi asr kichkintoylarining qiziqishlari, ruhiy, ma'naviy olami, ularning ijtimoiy hayotga munosabati masalalari aks etgan asarlar tahlili orqali o'quvchilarda axloqiy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy tarbiyani shakllantirishga ahamiyat berilmoqda. Istiqlol davri o`zbek bolalar she'riyati vakillarini eslaganda ko`z o`ngimizda X.To`xtaboyev, A.Obidjon, K.Turdiyeva va shu kabi ustoz adiblar qatorida T.Adashboyev va Qambar otaning ham ijodida ham namoyon bo`ladi. Qambar Ota (O'tayev) 1941 yil 12 yanvarda Kattaqo'rg'on shahrida tavallud topdi. Samarqand suv xo'jaligi texnikumida, Samarqand davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakultetida (1958–1967) tahsil oldi. Mehnat faoliyatini 1967 yilda "Samarqand universiteti" gazetasi muharriri sifatida boshladi. "Kitobcha va buzoqcha" nomli dastlabki to'plami 1965 yili chop etildi. Shundan so'ng bolalarga bag'ishlangan "Yoshlik sururi" (1972), "Chinor ansambli" (1976), "Adashboy" (1975), "Bizning kosmos" (1976), "Tinim bilmas shamolvoy", "Chavandoz orzusi" (1985), "Shirin so'z" (1988), "G'ildirak" (1989), "Tabiatga rahmat" (1991), "Sizday yashagim kelar" (1994), "Alifbe bayrami" (2003), "Quyosh bilan gaplashdim" (2005), "Kitobsevar Oftoboy" (2006), "Diydor" (1981), "Izlar" (1991), "Tinmay izlan, yuragim", "Dil ko'rki" (2010) kabi ko'plab kitoblari nashr qilindi.
Bundan tashqari yangi nashr bo'lmish darsliklarimizda ham ma'rifiy she'rlari kiritilmoqda. Masalan 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 18-betida quyidagi misralar keltirilgan

SOAT

Har bir kunni bo‘lib-bo‘lib,
Rejasini tuzib olgan,
U der: “Vaqt asl-qimmat,
Yugurganday baxt izidan,
Kim mehnatni sevsa chindan,
Ishimizga doim shaymiz,
Chiqmaydi u izimizdan,
bizdan.
Vaqtdan topdik baxtimizni!

Yigirma to‘rt soat qilib,
Hisobini chizib olgan.
Vaqt – umr, vaqt – hayot”.
Yuguramiz vaqt izidan.
Vaqt qochmaydi aslo undan.
Vaqtni yuvosh jilovlaymiz.
Biz ham shodmiz, u shod
Qadrlaymiz vaqtimizni,
Qambar ota

Yuqoridagi she’rda vaqtni qadrlash asosiy g‘oya hisoblanadi. Bolalarga vaqtni qadrlashni yoshlikdan o’rgatishdan maqsad qilib olingan. Barcha shoirlar ijodidan albatta ma’rifiy she’rlarni topishimiz mumkin.

Biz o‘quvchilarda yuqoridagi she’rni o‘rgatishda quyidagi savollarga javob olish yo‘lish yo‘li bilan o‘quvchilar ongiga yetib borishi oson bo‘ladi

She’rning muallifi kim? Muallifning yana qaysi she’rlari bilan tanishsiz?
2 Ayting-chi, shoir bu she’rni nima uchun yozgan?
3 Bir kun nacha soatdan iborat ekan?
4 She’rdagi qaysi gaplar soatning tilidan aytilgan?
5 Nima uchun she’rda vaqt umrga qiyoslangan?
6 “Kim mehnatni sevsa chindan, Vaqt qochmaydi aslo undan” deganda nimani tushundingiz?
7 Soat haqida she’r yozsangiz uni nimalarga o‘xshatib ta’riflagan bo‘lar edingiz?

Yuqoridagi savol orqali o’quvchi birinchi navbatda shoir bilan tanishadi va o’z navbatida vaqtni qadrlashga o’rgatadi. Yoshlik yillarida vaqt bekorga o‘tkazilsa, bilim olish fursati ham boy beriladi. Bugungi kunimiz ertaga tarixga aylanadi. Tarix zarvaraqlarida esa har bir insonning o‘z xalqi uchun qilgan xizmatlari, saodatli ishlari manguga muhrlanadi. Hozirgi kunda Qizilqum bag‘ridagi, tabiatning insonlarga tuhfa etgan boyliklarini o‘zlashtirishda kombinat konchilari ichida mangulikka daxldor ishlar qilayotgan hamkasblarimiz juda ham ko‘p.

Umuman, bolalar abiyotidagi ma’rifiy she’rlar boshlang`ich sinf o`quvchilarini maktabda olgan bilimlarini mustahkamlashga, ularning badiiy talqini orqali yangi qirralarini kashf etishga yordam beradi. Nuqul qoidalar yod olish, nazariy topshiriqlarni bajarib, zerikkan o`quvchilarga dam olish daqiqalari o`tkazishda, badiiy-estetik zavq hamda ma’naviy oziq bera oladigan ma’rifiy she’rlar ahamiyati shu ma’noda hamon dolzarb.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bashorat Jamilova . Description of the spirit of teenagers in uzbek children's prose . //MIDDLE EUROPEAN SCIENTIFIC BULLETIN ISSN 2694-9970 https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/134

2. Jamilova B.S. and Qahhorova M.Y. Bolalar detective nasrida o’smirlar ruhiyati tasviri// Internationational scientific methodical journal, ISSN 2181-1709(P), 2181-1717(E) , 2020,1. http://interscience.uz/

3.Jamilova B. , Qahhorova M. Comparative interpretation of the characters in English and Uzbek novels. Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, Issue 2. – Australia, 2021. DOI: 10.47750/cibg.2021.27.02.169 .

Jumayev, Ruzokul. "Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).

Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛАР." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).

Xoliqulovich J. R. SADRIDDIN AYNIYNING “ESDALIKLAR” ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich Buxoro davlat universiteti katta o ‘qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 34-37..

Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Using anthropometric units in" Esdaliklar" by Sadriddin Ayniy." European Journal Of Innovation In Nonformal Education 2.2 (2022): 295-298.

Jumayev, Ruzokul. "SADRIDDIN AYNIYNING “ESDALIKLAR” ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO ‘LLANISHI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).

Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2021).

Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Influence of Sadriddin Aini life and works in spiritual and moral development of students." Middle European Scientific Bulletin 11 (2021).

Jumayev, Ruzokul. "Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2020).

Jumayev R. SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.

Jumayev R. SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.

Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИИЙ) ТОПОНИМЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.

Адизова Нигора Бахтиёровна. Оқсоқол Бува, Бола Ва Хон Образлари Қизиқмачоқлар Талқинида. Journal of innovations in social sciencesjournal of innovations in social sciences. 02 Issue: 01 | 2022.

Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |

Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo‘llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022

AB Rakhmonovich, AN Bakhtiyorovna. THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN’S FOLKLORE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)

Нигора Бахтиёровна Адизова, Ҳилола Худойбердиева. ҚИЗИҚМАЧОҚЛАРДА ОҚСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ. Scientific progress

Nigora Baxtiyorovna Adizova. Boshlang’ich sinf o ‘quvchilari nutqini o‘stirishda mustaqil ishlarning o ‘rni va ahamiyati. Scientific progress